

## USMON AZIMNING IJTIMOYIY XARAKTERDAGI SARBAST SHE'RLARIDA BADIY TELEPORTATSIYA

Alibek Omonturdiyev

TerDU tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14173532>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoir Usmon Azimning sarbast she'rlarida ifoda etilgan ijtimoiy dardlar asosini tashkil etuvchi his-tuyg'ularning badiiy teleportatsion xususiyatlari tahlilga tortilgan. Muallifning subyektiv emotsional kechinmalarining ta'sir etish sabablari haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Usmon Azim, badiiy teleportatsiya, sarbast, ijtimoiy dard, subyektiv his-tuyg'u, ohang.

## ARTISTIC TELEPORTATION IN USMAN AZIM'S POEMS OF A SOCIAL CHARACTER

**Abstract.** In this article, the artistic teleportation features of the emotions that form the basis of social pains expressed in the sarbast poems of the poet Usman Azim are analyzed. Opinions about the reasons for the impact of the author's subjective emotional experiences are presented.

**Key words:** Usman Azim, artistic teleportation, sarbast, social pain, subjective feeling, tone.

## ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ТЕЛЕПОРТАЦИЯ В СТИХИЯХ УСМАНА АЗИМА СОЦИАЛЬНОГО ХАРАКТЕРА

**Аннотация.** В данной статье анализируются особенности художественной телепортации эмоций, составляющих основу социальных болей, выраженных в сарбастовых стихотворениях поэта Османа Азима. Представлены мнения о причинах воздействия субъективных эмоциональных переживаний автора.

**Ключевые слова:** Усман Азим, художественная телепортация, сарбаст, социальная боль, субъективное ощущение, тон.

“She’rning she’r bo’lishiga vazn va qofiyaning hech daxli yo’qdur”<sup>1</sup> – deb yozadi ulug’ mutafakkir A.Fitrat. XX asr avvalida o’zbek adabiy zehniyatida fikr va tuyg’uni o’zgacha formatda aytish istagi har qachongidan-da jo’sh urdi.

<sup>1</sup> Фитрат А. Танланган асарлар: Ж. IV. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар/ – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 14.

Yangi o'zbek adabiyotining qator namoyandalari bu haqida yozishdi. Xususan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Ulug' hindiy" (R.Thokur haqida) maqolasida:

"O'zimning yo'lsizligimdan biroz so'zlab o'tayin.

Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiyman: bir xil, bir xil, bir xil! Ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradi!"<sup>2</sup>, – deya ta'kidlaydi. O'tgan asrda buyuk ma'rifatparvar jadidlar sa'y-harakati natijasida milliy she'riyatimiz qabul qilgan aksariyat rang-barang shakliy o'zgarishlardan hozirga qadar keng foydalanib kelinmoqda.

Xususan, sarbast she'rga mansub badiiy matnlar ham o'tgan davr mobaynida turli sifat o'zgarishlariga yuz burdi. O'zbek adabiyotshunosligi mazkur badiiy yaratishlarni tekshirib ulgurani yo'q. Ayrim mutaxassislar<sup>3</sup> erkin va sarbast she'rlarni bir xil ekanligini e'tirof etgan holda ularni alohida she'r tizimi deb hisoblaydi.

"O'zbek adabiyotida sarbast she'rning shakllanishi va uning badiiy-estetik xususiyatlari"ni monografik planda o'rgangan tadqiqotchi A.Mamatovaga ko'ra, "Erkin she'r, oq she'r, sarbast she'r – har biri alohida she'r turlaridir. Ular avvalo bir-biridan shakli, ifoda ko'lami, ritmikasi, qofiyalanish tarziga ko'ra farqlanadi. Erkin, oq she'r – barmoq vazni tizimiga mansub. Sarbast esa ulardan farqli adabiy hodisadir. Sarbastning o'ziga xos jihatlarini, uning erkin va oq she'rdan tafovutli tomonlarini ko'rsatish muhim ilmiy-nazariy muammodir. Chunki sarbast she'r an'anaviy o'zbek she'riyatida ilgari mavjud bo'lmagan yangi she'r tizimidir. U ko'rinishi, shakl-shamoyili jihatidagina emas, mazmun, mundariyasi, ifoda ko'lami, tasvir imkoniyatlari, ritm xususiyatlari, badiiy vositalarining qo'llanish jihatidan ham o'ziga xosdir"<sup>4</sup>.

Barcha janrlarni birdek o'zlashtirib, ko'nglida kechayotgan tug'yonlarni qay janrga mos tushishini aniq biladigan ijodkorlarga professionallardir. O'zbek she'riyatida barmoq bilan sanarli bo'lsa-da, bunday ijodkorlar bor. Bugungi zamonaviy she'riyatimizning peshqadam shoiri Usmon Azim ham shulardan biridir. U Azim she'riyatning turli janrlarida muvaffaqiyatli ijod qilib kelmoqda. O'zbek kitobxonlari qayta-qayta murojaat qiladigan qofiyali she'rlari barobarida shoirning sarbastlari (verlibr) ham alohida e'tiborga molik.

Ijtimoiy xarakterdagi sarbast she'rlarida shoir botinidagi shakliy qoliplarga sig'maydigan isyon, rostgo'ylik, umumlashma dardlarga xolis subyektiv yondoshuvni kuzatishimiz mumkin.

*Bu sukunat buncha jim?*

<sup>2</sup> Чўлпон. Адабиёт надур. – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1994. – Б. 57-58.

<sup>3</sup> Саримсоқов Б. Ўзбек шеър системалари ҳақида // ЎТА, 1988, №5; Н.Шукуров ва бошқ. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 1979. – Б. 148-154; Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 1995. – Б. 155-158; Афоқова Н. Жади шейрияти поэтикаси. – Тошкент, 2005. – Б. 102.

<sup>4</sup> Маматова А. Ўзбек адабиётида сарбаст шеърнинг шаклланиши ва унинг бадий-эстетик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс – Тошкент: 2000. – Б. 13-14.

*Birov yig'ladimi?*

...

*Chaqaloq*

*ingaladimi*

*chiqindi qutida?*

*Bir yaxshi odamni*

*do'stlari sotdimi?*

*Yoki*

*Vatanini sotdimi*

*birov?*

Bizningcha, she'r va haqiqat so'zlari vazifasiga ko'ra sinonimik ma'no anglatadi. Ulug' shoir R.Parfi ta'biri bilan aytganda: "Shoir yolg'ondan, yuzaki, soxta qo'shiq aytishdan qo'rqadi.

Aniqrog'i, shoirning ichidagi iste'dod qo'rqadi yolg'ondan. Chunki yolg'on iste'dodning kushandasi"<sup>5</sup>. U.Azim, umuman chin shoir, iste'dodidan ayrilish hadigi ro'kachidan emas, she'riyat va yolg'on azaldan o't va suv kabi bir-biriga zid bo'lgani uchun ham azbaroyi undan tiyiladi. Usmon Azim – fitratan jasoratli shoir. U hayotda ham, ijodda ham haqgo'yligi bilan hurmat qozongan. Yuqoridagi: "*Chaqaloq ingaladimi chiqindi qutida*", "*Bir yaxshi odamni do'stlari sotdimi?*", "*Vatanini sotdimi birov?*" kabi satrlarning hayotdagi protosyujetlariga ahyon-ahyon guvoh bo'lmoqdamiz.

Quyidagi satrlarga diqqat qarating:

*Hamma qatori ko'z yumib aroq ichasan,*

*Hamma qatori namoz o'qiysan bosh egib,*

*Ishga uzoq mamlakatlarga qatnaysan,*

*To'y qilasan topgan pulingga.*

*Qo'shig'ingni faqat toshlar eshitishi mumkin,*

*Dardlaringni faqat archalar...*

*Ko'z yoshlaringni esa shamollar artadi.*

*Tez ket!*

*Bu tog'larda baxtli bo'lishing mumkin...*

*Tez ket*<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Рауф Парфи сабоқлари/ тузувчи ва ҳаммуаллиф Ш.Курбон. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. – Б. 79-80.

<sup>6</sup> Азим У. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 480.

(“Boysun tog‘ida Yusuf geroyning o‘n yoshli o‘g‘li  
qo‘shiq aytganda yozgan she‘rim”).

Ushbu she‘rda iste‘dodli bolakayga maslahat berish asnosida muallif ijtimoiy dardlarni konkret sanab o‘tadi. Hammaning nazdida “hamma qatori” yashash: aroq ichish, topganini to‘yga sovurish (illat, milliy katastrofa), namoz o‘qish (she‘rda bir kunda ham namoz o‘qib, ham spirtli ichimlik iste‘mol qiluvchilar nazarda tutilgan – munofiqlik), migrant bo‘lish (ishsizlik, nochorlik).

Xulosa ham faqat U.Azimga xos: “bu tog‘larda baxtli bo‘lishing mumkin” – ham ro‘yo, ham ro‘yob. Zotan, iste‘dodlilar, daholar – umuman, tafakkuri yuksalib, dunyoning mohiyatini anglab yetgan zotlar hamisha qiynalib yashashi haqida ko‘plab naqlar mavjud.

U.Azim fojiani san‘at rutbasida tasvirlaydi. Uning mavzu va obrazlari birikuvidan kemtiklik topish qiyin. Ayolning xiyonati – oila va naslning buzilishiga, jamiyatning parokandaligiga olib keladi.

*Qo‘shiq ayol!*

*Qo‘shiq...*

*Nega yig‘laysan?*

*Qo‘shiqsiz qoldingmi,*

*birodarim?*

*Birodarim,*

*qo‘shiq ham*

*xiyonat qiladimi?*

*Birodarim...<sup>7</sup>* (“Tasalli bermoqqa urinish”)

“She‘rdagi davr tushunchasi ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog‘liqlikdagi inson hayoti bilan belgilanadi. She‘riyat insoniyat uchun yaratilar ekan, shoir uchun davr miqyosi zamondoshlari hayoti, inson taqdiri bilan xarakterlanadi; insonning bugungi hayoti, tushuncha va tafakkuri bilan uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi”<sup>8</sup>. U.Azim ijtimoiy muammolarga to‘la hayotni o‘zgacha ko‘z bilan kuzatadi va uning mohiyatiga ba‘zan salafariga xos donishmandlik bilan, gohida o‘ziga xos paradoksal ravishda yondashib, so‘z aytadi.

*Ey!..*

*Qorni och!..*

*Meni kechir,*

*she‘rim non bo‘lmayapti*

<sup>7</sup> Усмон Азим. Кўнги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 39.

<sup>8</sup> Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 8-9.

*senga beray desam...*

*Ey!..*

*Qorni och!..*

*Xudo qaysimizni*

*ko 'proq xo 'rladi?!...<sup>9</sup>*

Shoir – jamiyatning vijdoni. Uning funksiyalaridan biri iqtisodiy ahvolni yaxshilash, mamlakatga tashqi investitsiyalarni jalb qilish bo'lmasa-da, o'zi yashab turgan jamiyatning qon tomirini "ushlab", uning og'riqlariga aniq tashxis qo'yish ishi shoirni befarq qoldirmasligi zarur.

O'zbek she'riyatida ijtimoiy holatni anglasa-da, kechinmalarini san'at darajasidagi mukammal badiiy matnga aylantiradigan shoirlar u qadar ko'p emas. Usmon Azim u toifadan mustasno qutbda bo'lib, uning she'rlarida professional ifodaviylik ustuvorlik qiladi. "Ayni paytda uning she'rlari mantiqda hukmning kuchliligi, tashbehlarining jozibadorligi, fikrning ijtimoiy salmoqdorligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Usmon Azim she'riyatida zamon nafasi kuchli. U zamondoshlari dardini, tashvishlarini, orzu-istaklarini yorqin ifodalay oladi"<sup>10</sup>.

*Bular – mollar:*

*kuchlisini*

*qo 'shga qo 'shamiz,*

*uchqurini uloqqa;*

*yuvoshini*

*minamiz o 'lguncha;*

*semizini so 'yamiz;*

*gapga kirmaganini*

*qamab qo 'yamiz*

*og 'ilxonaga;<sup>11</sup>*

Jamiyatda insonni oyoq uchida ko'rsatib keladigan toifalar: mansabdorlar (siyosat), boylar (moddiy tengsizlik), shaharliklar ("aristokratiya"), hayot mohiyatini faqat moddiy qiymatlardan iborat deb hisoblaydiganlar (tujjorlar) hamisha bo'lgan. Insonni "hayvon" sanovchi muayyan qatlamlar vakillari o'tgan asrda ham o'zbek millatining qaddini egishga intilganlar, taassufki, bugungi kunda ham bundaylar topiladi. 2003-yilda bitilgan mazkur she'rda muallif ana shunday toifa vakillarining – ma'lum amal va iqtidor sohiblarining "oddiy xalq"ga nisbatan munosabatini:

<sup>9</sup> Усмон Азим. Фонус. Тошкент: "Sharq", 2010. – Б. 112.

<sup>10</sup> Сувонова Ж. Усмон Азим шеъриятида бадий тафаккур теранлиги. [Монография]. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 89.

<sup>11</sup> Усмон Азим. Фонус. Тошкент: "Sharq", 2010. – Б. 91.

ichki va xos siyosatining asl basharasini badiiy obrazlar vositasida fosh etadi: *Kuchli* – *qo‘shga* (og‘ir mehnatga); *uchqur* – *uloqqa* (yugurdaklik); *yuvosh* – *mingi*; (landavurlik); *semizi* – *kushxonaga* (puldorni talash); *o‘jar* – *og‘ilxonaga* (qamoqxona, turma). She‘rning navbatdagi satrlarida “kambag‘allar, nochorlar va beparvolar”ga qilinajak munosabat bayon etiladi:

*oriqlari esa o‘lib ketaveradi.*

*Ularning tili yo‘q.*

*Hatto*

*qo‘llari ham*

*oyoqqa aylangan.*

She‘rning intihosida shoir bunday munosabatlarning sababini aniq keltiradi: “*Bizni xudo deb bilganlaridan keyin / nima bo‘ladi ular, / mol bo‘lmay...*”. Ushbu satrlar oddiy va tushunarli so‘zlardan iborat bo‘lgani holda “oson” o‘qilmaydi. O‘quvchi she‘r zamiridagi ma‘noni anglarkan, uning ildizlari haqida mushohada qilishga majbur bo‘ladi. Shoirning bir qarashda istehzolidek tuyuladigan, biroq ayni damda ko‘plab odamlar taqdirlariga begona bo‘lmagan achchiq haqiqatlari kishini o‘yga soladi. Natijada, muallifning subyektiv his-tuyg‘usi (ranj-u alam) o‘quvchi sezimlariga ko‘chadi.

## REFERENCES

1. Фитрат А. Танланган асарлар: Ж. IV. Дарелик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар/ – Тошкент: “Маънавият”, 2006. – Б. 14.
2. Чўлпон. Адабиёт надур. – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1994. – Б. 57-58.
3. Маматова А. Ўзбек адабиётида сарбаст шеърнинг шаклланиши ва унинг бадий-эстетик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс – Тошкент: 2000. – Б. 13-14.
4. Рауф Парфи сабоқлари/ тузувчи ва ҳаммуаллиф Ш.Қурбон. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. – Б. 79-80.
5. Азим У. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 480.
6. Усмон Азим. Кўнгил. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 39.
7. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 8-9.
8. Усмон Азим. Фонус. Тошкент: “Sharq”, 2010. – Б. 112.
9. Сувонова Ж. Усмон Азим шеърлятида бадий тафаккур теранлиги. [Монография]. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 89.
10. Усмон Азим. Фонус. Тошкент: “Sharq”, 2010. – Б. 91.